

**YOZMA ISH VA UNING TURLARI**

Termiz davlat universiteti  
filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi  
**To'ranazarova O'g'iloy**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mazkur yozma ishda yozma ish tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot beriladi. Yozma ish – bu muayyan mavzu bo'yicha ilmiy, badiiy yoki rasmiy tarzda ifodalangan matn bo'lib, uning bir necha turlari mavjud. Ish davomida ilmiy yozma ishlar (kurs ishi, diplom ishi, maqola, dissertatsiya), badiiy yozma ishlar (she'r, hikoya, roman), rasmiy yozma ishlar (ariza, xat, hisobot) hamda publitsistik yozma ishlar (maqola, esse, reportaj) haqida qisqacha tushuncha beriladi. Ushbu ish yozma faoliyatning turli ko'rinishlarini o'rganishga yordam beradi va ularning xususiyatlarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Fonematik o'quv, avtomatizatsiya, differensiatsiya, disleksiya, ogrofiya, logopediya, imlo tekshiruvi.

Yozma nutq harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzaslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqelanadi. Yozma nutq ustida ishlash og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Chunki u o'quvchidan grammatik va mazmunan jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turning murakkab tabiati ham shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub tabiatiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklarlar ustida ishlaydi, ularni bartaraf

etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Yozma nutqdagi imlo va tinish belgilari ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan qo'shib, bir yaxlitlik hosil qiladi. Yozma ish atamasi ikki xil ma'noda qo'llanadi: 1. Yozma ish - ilmiy xarakterdagi yozma ishlar, yozma shaklda bajariladigan nazorat turlari, topshiriqlar, ko'chirib yozish. Nazoratning bu turi nafaqat filologiya, balki barcha sohalarga ham tegishlidir. Masalan, fizika, matematikaga oid yozma ishlar. Bu tipdagi yozma ishlar o'quvchilarni ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar uchun eng asosiy manba maktab darsliklaridir. Bilamizki, bugungi kunda fanlararo integratsiyaning ommalashuvi natijasida o'quvchi yoshlarning nutqiy savodxonlikka erishishiga qaratilayotgan e'tibor yanada yuksalib bormoqda. Shuning bilan birga, talabalar nutqiy savodxonligining eng yuqori bo'g'inida turuvchi fikriy erkinlikning ahamiyati ham katta rol o'ynaydi. Ayni bu borada esa monologik nutq vositasida ifoda etiladigan tushunchalar va qarashlarning ahamiyati kattadir. Ushbu nutq shaklining og'zaki tarzda anglashilishi talaffuzda namoyon bo'lib, intonatsiyaning tutgan o'rni bilan anglashiladi. Shuningdek, so'zlovchining fikri qaratilgan shaxslararo munosabat shakllarining to'liq va to'g'ri tarzda namoyon etilishi ham nutq tarkibining kompozitsion tuzilishiga aloqadorlikni kasb etadi. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqdagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo'pol tanbeh, noto'g'ri tanqid o'quvchilar o'rtasidagi yaxshi muomalani buzishi, o'quvchini o'rinsiz ranjitishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchi, nutqiy muomala qilishda pedagogik odob talablariga rioya qilishi, o'quvchilarning insoniy qadr-qimmati, obro'sini saqlashga intilish zarur. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalap lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda o'quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Grammatika

va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi terminlarni bilib oladilar. Hozirga qadar yoshlarga ta'lim - tarbiya berishda amaliy yordam beruvchi, bilim berish jarayonini soddalashtiruvchi bir qancha ilmiy ishlar, nomzodlik dissertatsiyalari, qo'llanma va maqolllar yaratilganligi ma'lum. Biroq o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni mustaqil ravishda bilim olishga, mustaqil ishlashga qaratilgan ilmiy ishlar, ularning yozma nutqi kamchiliklari xususida olib borilgan ilmiy ishlar hozirgi vaqtda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda". Yozma nutqning ham amaliy vositalar asnosida rivojlanishiga erishish pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik lozim. Monologik nutqda so'zlovchi o'z fikr va mulohazalarini subyektiv munosabat vositasida ham banoyon etishi mumkin. Shuningdek, monologik nutqning ahamiyatlilik darajasini oshirishda uning kishilik jamiyatimizda so'zlovchi va tinglovchi munosabatlarining ham og'zaki ham yozma tarzda namoyon etilishida anglash mumkin. Yozma nutqni tashkil etishda asosan, kirish so'zlar hamda badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardan foydalanish malakalarining paydo bo'lishi lozim bo'ladi. Yozma nutq mexanizmining eng rivojlangan va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini namoyish qilishdagi eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu boradagi rus olimlarining ilmiy izlanishlari bugungi kunda yozuv sohasidagi nuqsonlarni bartaraf etish va ushbu sohadagi xizmatlarning, amaliyotlarining namunali amalga oshirilishini belgilaydi. Yozma nutqdagi nuqsonlar xalqlari notori shakllanishi yoki imloviy jihatdan qo'pol xatolarning yuzaga kelishi bilan ifodalanadi ular turli xil elementlar, birikmalar va so'zlarni qisqartirish vositasida ham yuzaga kelishi mumkin. "Maktablar o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan yangi dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada oshdi. Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini

aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, „texnik“ vazifalarham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda im lo qoidalari va husnixatga e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga ko'ra uchga bo'linadi:

- 1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;
- 2) kitob material, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;
- 3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki turli boiadi:

- 1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;.
- 2) alohida mavzu asosida yakka tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho. Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir". O'quvchini kasbga yo'naltirish, muayyan sohalar haqida tasavvur va bilim hosil qilish har bir fan o'qituvchisining burchi hisoblanadi. Yosh avlodni kasbga tayyorlovchi asosiy omil ona tili va adabiyot fanlaridagi matnlar, mashqlar va albatta, "Kim bo'lsam ekan?", "Men tanlagan kasb" kabi mavzulardagi dastlabki insholardir. "Insho" arabcha so'z bo'lib, "tashkil etish", "yaratish", "qurish", "barpo qilish", "ijod", "bayon", "tahrir" ma'nolarini anglatadi.

Insho muallifning ma'lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir. Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikr-mulohazalarini mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi. Insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi. Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorgarlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezondir. Insho tez fursatda o'rganiladigan yoki o'zlashtiriladigan yozma ish turi emas. Insho yozish ko'nikmalariga qisqa muddatda ega bo'lish qiyin, albatta. Yaxshi, har tomonlama maqsadga muvofiq insho ko'p yillik faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, ko'p mutolaa qilish, imlo lug'atlari, izohli lug'atlardan boxabar bo'lish, atroflicha bilimga ega bo'lish talab darajasida yoziladigan insholarga zamin yaratadi. Insho belgilangan maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ta'limiy insholar va sinov insholari. Ta'limiy insholar - sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidanyozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishgaqaratiladi. Bunday insholarda biror yozuvchi yoki shoir ijodi, asarlari mazmuni, mavzu doirasi, badiiy ahamiyatini o'zlashtirish, o'quvchida fikrlash ko'nikmalari, qaror qabul qilish tezligi, voqelikka, shaxslarga, narsa-hodisaga baho berish malakasini shakllantirish maqsadi qo'yiladi. Ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin bunday insholar bilimni aniqlashga emas, bilim berishga yo'naltiriladi. Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash hamda baholash uchun muayyan mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida nazorat ishi sifatida, davlat attestatsiyalarida, olimpiadalarda, ijtimoiy-gumanitar sohalarga doir tanlovlarda o'tkaziladi. Sinov insholari olingan bilim, ko'nikma va malakani baholashga xizmat qiladi. Yozuvdagi

kamchiliklar disgrofiya yoki ko'p holatlarda qo'llanilgan kamchiliklar esa disleksiyalar bilan birga kuzatiladi. O'quvchi-yoshlarning nutq faoliyati tovushlarning talaffuzi tarzda anglashilayotgan fikrlari, ularning ko'rgan voqealariga real tarzda amalga oshiriladi. Logopedik jihatdan esa ona tili va adabiyot sohalari yoki turli xil nutqni rivojlantirishga qaratilgan fan sohalarida ustida ishlatilyotgan artikulyatsion hodisalar o'quvchilarni anchayin rivojlangan va og'zaki va yozma nutq predmetlarini to'g'ri yo'lga qo'yib olgan ekanligi anglashiladi. Shuni unutmaslik lozimki, so'z va gaplarni analiz va sintez qilishda kop holatlarda ularning to'g'ri tarzda tarkib topganligi mantiqiy jihatdan uzluksiz

bog'liqligi so'zlarning anglashilayotgan fikrga hamohang ekanligi bilan ifodalaniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xasanboyeva Shoiraxon. Yozma nutqni rivojlantirish. Proceedings of international Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, Usa - 2022
2. Kadamova Mohinur Mamurbek qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilaming og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari. Международный научный журнал No7(100), часть 2 «Научный импульс» Февраль, 2023
- Diktantlar to'plami. Toshkent - 2018.
3. Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T. "Ilmi ziyo». 2010.
4. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT. Toshkent. "Turon Zamin ziyo" - 2017.
5. Shayxislamov N. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning o'rni. SCIENTIFIC PROGRESS 2021.